



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:4 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

№	MUNDARIJA	Page
1.	SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li</i>	4
2.	QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'NING XORIJ TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI <i>Bobomurodov Abdurasul</i>	7
3	KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH <i>Ruziyev Oybek Abdimuminovich, Karimov Erkin Yusubovich</i>	10
4	KICHIK BIZNESNI MOLIYAVIY RESURSLARI VA SAMARADORLIGINI OSHIRIGA TA'SIR E'TUVCHI OMILLARI <i>Ketmanov Avazbek Malikovich</i>	13
5	ELEKTR ENERGIYASINI SOTISHDA YO'QOTISHLARNI QOPLASH BO'YICHA HISOB-KITOBLAR <i>Nurniyozov Feruz Abdurashid o'g'li</i>	16
6	DAVLAT XARIDLARINING IQTISODIY MAZMUNI VA MAMLAKAT MOLIYA TIZIMIDAGI O'RNI: NAZARIY YONDASHUVLAR <i>Xamdamov Sardor Farmon o'g'li</i>	19
7	MAVSUMIY ISHLAB CHIQRISH SHAROITIDA KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Kilichev Alisher Akramovich</i>	21
8	XUSUSIY TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Primkulova Zilola Abrorovna</i>	23
9	TIBBIY XIZMATLAR BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shamsikulova Moxina bonu Furkatovna</i>	25
10	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH VA SOLIQ INTIZOMINI MUSTAHKAMLASH <i>Sanakulova Iroda Abrorovna</i>	28
11	TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI <i>Dadaev Kuvanish Mashrapovich</i>	31
12	RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING AFZALLIKLARI <i>Jumaniyazov Rashid Azamatovich</i>	34
13	QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Bakhodir Khoshbakov</i>	36

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING AFZALLIKLARI

Jumaniyazov Rashid Azamatovich

Qoraqalpog' davlat universiteti talabasi

E-mail: rashidjumaniazov76@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli to'lov tizimlarining rivojlanish tendensiyalari, ularning asosiy turlari va afzalliklari nazariy-tavsifiy tahlil asosida yoritilgan. Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ishlariga tayangan holda raqamli to'lov tizimlarining an'anaviy to'lov usullaridan farqlari, ularning iqtisodiy va ijtimoiy afzalliklari, shuningdek amaliyotda uchraydigan asosiy muammo va cheklovlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli to'lov tizimlari, raqamli to'lovlar, elektron to'lovlar, moliyaviy texnologiyalar, moliyaviy inklyuzivlik, kiberxavfsizlik, raqamli savodxonlik, an'anaviy to'lov tizimlari.

Abstract: This article examines the development trends, main types, and advantages of digital payment systems based on a theoretical and descriptive analysis. Drawing on the works of foreign and domestic researchers, the article analyzes the differences between digital payment systems and traditional payment methods, their economic and social advantages, as well as the main problems and limitations encountered in practice.

Keywords: digital payment systems, digital payments, electronic payments, financial technologies, financial inclusion, cybersecurity, digital literacy, traditional payment systems.

Абстрактный: В данной статье на основе теоретико-описательного анализа рассмотрены тенденции развития, основные виды и преимущества цифровых платёжных систем. Опираясь на труды зарубежных и отечественных исследователей, проанализированы различия между цифровыми платёжными системами и традиционными способами оплаты, их экономические и социальные преимущества, а также основные проблемы и ограничения, возникающие на практике.

Ключевые слова: цифровые платёжные системы, цифровые платежи, электронные платежи, финансовые технологии, финансовая инклюзия, кибербезопасность, цифровая грамотность, традиционные платёжные системы.

Kirish (Введение/Introduction).

So'nggi yillarda iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida raqamli transformatsiya jarayoni jadallashmoqda. Mazkur jarayon moliya sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatib, an'anaviy to'lov usullarining o'rnini bosqichma-bosqich raqamli to'lov tizimlari egallab bormoqda. Raqamli to'lov tizimlari so'nggi yillarda dunyo bo'ylab moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishning eng samarali va keng tarqalgan usuliga aylangan. Bunga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiyoti, internet infratuzilmasining kengayishi va mobil texnologiyalarning ommaviy qo'llanilishi muhim turtki bo'lmoqda. Infocom.uz ma'lumotlariga ko'ra, raqamli to'lov tizimlari dastlab 2000-yillarning boshlarida keng tarqala boshlagan [1]. Shundan buyon raqamli to'lov tizimlari texnologik taraqqiyot, internet infratuzilmasining rivojlanishi hamda mobil qurilmalardan foydalanishning kengayishi natijasida jadal sur'atlarida rivojlanib bormoqda. Raqamli to'lovlar hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Statista bozor prognoziga ko'ra, global raqamli to'lovlar bo'yicha umumiy tranzaksiya qiymati 2026 yilda 37,45 trillion AQSh dollariga yetishi kutilmoqda [2]. Ushbu o'sish raqamli to'lov tizimlarining jahon iqtisodiyotidagi o'rnini tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi raqamli to'lov tizimlarining rivojlanish tendensiyalarini, ularning asosiy turlarini hamda iqtisodiy va ijtimoiy afzalliklarini tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Raqamli to'lov tizimlari mavzusi so'nggi yillarda ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Jumladan, Ghosh, G. (2021) o'z tadqiqotida raqamli to'lov tizimlarining iste'molchilar tomonidan qabul qilinishi masalasini keng qamrovli adabiyotlar sharhi asosida tahlil qilgan [3]. Muallif turli tadqiqotchilarning ishlarini umumlashtirib, raqamli to'lovning asosiy turlarini tasniflagan.

Sunil, S. V., va Nalwaya, D. N. (2023) o'z tadqiqotida raqamli to'lov tizimlarining turlarini tasniflab, ularning imkoniyat va muammolarini tahlil qilgan [4]. Mualliflar shaffoflik, moslashuvchanlik va qulaylik

kabilarni asosiy afzalliklar sifatida ko'rsatgan bo'lsa, kiberxavfsizlik xavfi, raqamli savodxonlikning yetishmasligi va texnologik infratuzilmaga qaramlikni asosiy muammolar sifatida aniqlagan.

Minami, E. (2025) sifat tadqiqoti usulidan foydalanib, raqamli to'lov tizimlarining rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda moliyaviy inklyuzivlik va kichik biznes o'sishiga ta'sirini o'rgangan [5]. Muallif bunday tizimlarning moliyaviy xizmatlarga to'siqlarni kamaytirishi, iqtisodiy ishtirokni kengaytirishi va kichik korxonalarning operatsion samaradorligini oshirishini ko'rsatgan.

Kayumova, M. va Xasanova, M. (2026) o'z tadqiqotida raqamli to'lov tizimlarining iqtisodiyotdagi o'rnini, ularning pul muomalasi va pul aylanish tezligiga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qilgan [6].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы/Methods).

Tadqiqotda nazariy-tavsifiy tahlil usuli qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida raqamli to'lov tizimlariga oid xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar, statistik tahlil agentliklarining ochiq ma'lumotlari hamda tegishli veb-manbalar tizimlashtirilgan holda o'rganildi. An'anaviy va raqamli to'lov tizimlarini o'zaro solishtirish uchun qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi. Tadqiqot o'ziga xos ekonometrik hisob-kitoblarga emas, balki mavjud nazariy tushunchalar va adabiyotlardagi topilmalarning umumlashtirilishiga asoslanadi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Yuqorida ko'rib chiqilgan adabiyotlar asosida, quyida avval raqamli to'lov tizimlarining mohiyati va turlari, so'ngra ularning afzallik va muammolari batafsil tahlil qilinadi.

Raqamli to'lov tizimlari tushunchasi va turlari: Franciska, A. M., va Sahayaselvi, S. (2017) ta'kidlashicha, raqamli to'lov bu raqamli vositalar orqali amalga oshiriladigan to'lov usuli bo'lib, unda to'lovchi va mablag' oluvchi pul mablag'larini yuborish hamda qabul qilish uchun raqamli vositalardan foydalanadi [7]. Raqamli to'lov elektron to'lov deb ham ataladi va unda naqd pul ishlatilmaydi. **Raqamli to'lov tizimi** esa bu elektron to'lovlarni amalga oshirishni ta'minlaydigan texnologik va

moliyaviy infratuzilmalar majmuasidir. Raqamli to'lovlarni amalga oshirishda turli xil raqamli to'lov tizimlaridan foydalaniladi. Jumladan, **xalqaro raqamli to'lov tizimlariga** Visa, Mastercard, PayPal, Apple Pay, Google Pay va UnionPay kabi tizimlarni misol qilishimiz mumkin. Ushbu tizimlar xalqaro miqyosda elektron to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. **O'zbekistondagi raqamli to'lov tizimlariga** esa HUMO, Uzcard, Click, Payme, Apelsin va Paynet kabi tizimlarni misol qilishimiz mumkin. So'nggi yillarda raqamli to'lov tizimlari jadal sur'atlarda rivojlanib, an'anaviy to'lov tizimlariga nisbatan keng qo'llanilmoqda. An'anaviy to'lov tizimlari asosan naqd pul asosida faoliyat yuritishi sababli to'lov jarayonlari nisbatan sekinroq amalga oshiriladi. Raqamli to'lov tizimlari esa tezkorligi, qulayligi va xavfsizligi bilan ajralib turadi. An'anaviy va raqamli to'lov tizimlari o'rtasidagi asosiy farqlarni quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin.

1-jadval.

An'anaviy va raqamli to'lov tizimlarini qiyosiy taqqoslash (muallif tomonidan tuzilgan)¹

Taqqoslash mezonlari	An'anaviy to'lov tizimlari	Raqamli to'lov tizimlari
To'lov vositasi	Naqd pul, chek, qog'oz hujjatlar	Bank kartalari, mobil ilovalar, elektron hamyonlar
Qulaylik	Bank yoki kassaga borish talab etiladi	Istalgan joydan, mobil qurilma orqali
Xavfsizlik	Naqd pulni yo'qotish/o'g'irlanish xavfi	Shifrlash orqali himoyalangan, lekin kiberxavf mavjud
Shaffoflik	Tranzaksiyalarni kuzatish qiyin	Har bir operatsiya avtomatik qayd etiladi
Xarajatlar	Naqd pulni bosib chiqarish, tashish, saqlash xarajatlari	Tranzaksiya xarajatlari past, ba'zan komissiya bor

Tezlik	Sekin (navbat, bank ish vaqti bilan cheklangan)	Tezkor, 24/7 istalgan vaqtda
--------	---	------------------------------

Umuman olganda, jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli to'lov tizimlari deyarli barcha mezonlar bo'yicha an'anaviy tizimdan ustun turadi.

Raqamli to'lov tizimlarining afzalliklari va muammolari: Adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, mualliflar raqamli to'lov tizimlarining asosiy afzalliklari sifatida tezkorlik, qulaylik, shaffoflik, xavfsizlik, xarajatlarning kamayishi, moslashuvchanlik, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish hamda kichik biznesning operatsion samaradorligini yaxshilashni ta'kidlaydi [4, 5, 6]. Shu bilan birga, raqamli to'lov tizimlarini qo'llash jarayonida ayrim muammo va cheklovlar ham mavjud bo'lib, mualliflar bularga kiberxavfsizlik xavfi, raqamli savodxonlikning yetishmasligi, texnologik infratuzilmaga qaramlik, infratuzilma yetishmovchiligi hamda kichik bizneslarda texnik resurs tanqisligini kiritadi [4, 5, 6].

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki raqamli to'lov tizimlari zamonaviy moliyaviy ekotizimning tobora ortib borayotgan ahamiyatli qismiga aylanmoqda. Ularning tezkorlik, qulaylik, shaffoflik va moliyaviy inklyuzivlikni oshirish kabi afzalliklari iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik xavfi, raqamli savodxonlikning yetarli emasligi va texnologik infratuzilmaga qaramlik kabi muammolar bu tizimlarning to'liq salohiyatidan foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Yuqoridagi izlanishlardan kelib chiqqan holda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, raqamli to'lov tizimlaridan foydalanuvchilar orasida kiberxavfsizlik bo'yicha xabardorlikni oshirish.

Ikkinchidan, aholining, ayniqsa qishloq hududlarida raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan o'quv dasturlarini joriy etish.

Uchinchidan, internet va mobil aloqa infratuzilmasini barcha hududlarda bir xilda rivojlantirish.

To'rtinchidan, moliya institutlari tomonidan xavfsiz va qulay raqamli to'lov platformalarini yanada takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. InfoCom.uz — "Raqamli to'lov tizimlarini rivojlanish tendensiyalari". <https://infocom.uz/articles/raqamli-tolov-tizimlarini-rivojlanish-trendensiyalari>
2. Statista Market Forecast — "Digital Payments — Worldwide", 2026. <https://www.statista.com/outlook/fmo/payments/digital-payments/worldwide/>
3. Ghosh, G. (2021). Adoption of digital payment system by consumer: a review of literature. International Journal of Creative Research Thoughts, 9(2), 2320-2882.
4. Sunil, S. V., & Nalwaya, D. N. (2023). Digital payment systems—An overview of categories and extant opportunities and challenges. International Journal for Research in Applied Science and Engineering Technology, 11(4), 211-217.
5. Minami, E. (2025). Impact of digital payment systems on financial inclusion and small business growth in developing economies. International Journal of Innovation and Thinking, 2(1), 1-12.
6. Kayumova, M., & Xasanova, M. (2026). RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINING PUL AYLANISH TEZLIGIGA TA'SIRI. Ilg'or Iqtisodiyot Va Pedagogik Texnologiyalar, 3(2), 104-110. <https://doi.org/10.60078/3060-4842-2026-vol3-iss2-pp104-110>
7. Franciska, A. M., & Sahayaselvi, S. (2017). An overview on digital payments. International Journal of Research, 4(13), 2101-2111.

¹ Muallif ishlansmasi